

OILADA BOLALAR BILAN MULOQOTNI YO'LGA QO'YISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo'nalishi 1-22- guruh talabasi
Xolpo'latova Mehriniso Xolpo'lat qizi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamiyatimizning bir bo'g'ini bo'lgan oila haqida fikr yuritilgan.Oilada farzand tarbiyasi va ma'naviy-axloqiy shakllanishi borasida olimlarning fikrlari talqin etilgan. Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi - bu farzand ko'rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda er yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, bola tarbiyasi, muloqot, ijtimoiy hayot, zamonaviy sharoit

ABSTRACT

This article discusses the role of the family as a key link in society. The interpretation of the views of scientists on the up bringing and spiritual development of children in the family is carried out. Family is a sacred place for a person, is the social foundation of human society. The main purpose of family life is This is the regeneration of the population through having children, the succession of ancestors with generations and from ensuring the continuity and historical development of humanity on earth consists of

Key words: family, society, child rearing, social life, meeting, modern conditions.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Darhaqiqat, oila har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istiklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining qadriyatlari va ma'naviy merosi ravnaqini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. "Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan". Bola shakllanishing ilk maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatlari majmui bo'lib hisoblanadi. " Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko'rsatadi. Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiylar oilada bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda uning ta'lim va tarbiya olishi muhimligini o'z asarlarida ko'rsatib berish

orqali ijtimoiy tarbiyaning tamal toshini qo‘yanlar. Keyinchalik ma’rifatparvar pedagog olimlar – Zavqiy, Avaz O’tar, Dilshod Barno, Furqatlarning, jadid pedagog olimlari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzodalar ijtimoiy tarbiyaning jamiyatda muhim ahamiyatga egaligi, o‘sib kelayotgan avlodni jamiyat bilan integratsiyalashda ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhimligini o‘z qarashlari orqali ohib berishgan. Zamonaviy sharoitda oilada bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari faylasuf, psixolog va pedagog olimlar tomonidan oila muammosining turli jihatlarini tadqiq etish jarayonida ohib berilgan. Psixolog olimlardan V.M.Karimova “O’zbek yoshlarida oilasi to’g’risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi” deb nomlangan ilmiy ishida o‘zbek oilasidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruhlarda namoyon bo‘lishining empirik jihatlariga asoslanib, tadqiq etgan. Pedagog olimlardan A.Q.Munavarov o‘zining “Oilaviy tarbiya samaradorligining pedagogik shart-sharoitlari” deb nomlangan tadqiqotida oilaning ijtimoiy maqomi va ijtimoiy tarbiyaning funksiyalarini tadqiq etgan. Pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmonova oilada ma’naviy madaniyatni shakllantirish orqali bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga e’tibor qaratgan.

“Muloqot” tushunchasi lug’aviy jihatdan arab tilidan tarjima qilinganda “uchrashish”, “ko’rishish”, “qabul qilish” degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa muloqot “ikki yoki undan ortiq shaxslarning o’zaro bir-biriga ta’siri etishi” hisoblanadi. Har bir shaxs “muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta’lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me’yorlar g’oya va mafkura omillari ta’sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga etadi. Kishilar o’rtasidagi o’zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalardan biri hisoblanib, u o‘z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi”.

Oilada ota-onalar bolalar bilan muloqot jarayonida muntazam tarbiyaviy ta’sir o’tkazish metodlari bilan ishlaydi. Masalan: biror-bir voqeа, hodisaning mohiyatini tushuntirishda, bolaga u tomonidan sodir etilgan biror-bir noto’g’ri xatti-harakat uchun dashnom berishda. Ushbu vaziyatda ota-onalar, avvalo, nimalarga e’tibor berishi kerak: birinchidan, vaziyat tahlil qilinadi; ikkinchidan, murakkab vaziyatdan chiqishning mumkin bo’lgan variantlari saralanadi, uchinchidan, ushbu faoliyat, odatda tezkor amalga oshiriladi (bunda ham pedagogik kommunikatsiyaning o’ziga xosligi namoyon bo’ladi) va optimal metodlar tanlanadi, faqat shundan keyingina pedagogik ta’sir tashkil qilinadi. Biroq hali tanlangan ta’sir metodiga adekvat bo’lgan, u orqali pedagogik ta’sir amalga oshiriladigan muloqot tizimini topishimiz kerak. Ya’ni, ma’lum bir maqsadga qaratilgan umumiy pedagogik vazifani hal etgandan so’ng, ta’sir metodini tanlab bevosita ta’sirni tashkil qilish uchun asosiy vazifa sifatida kommunikativ vazifa belgilanishi kerak.

Ota-onalar o'rtasida nizolarning kelib chiqishi, bola tarbiyasidagi nuqsonlar, muloqot madaniyatining shakllanmaganligi, bolaga e'tibor bermaslikdandir.

Ma'lumki, 2 yosh bilan 5-6 yosh o'rtasida bolaning nutqi tez o'sa boshlaydi va so'z boyligi 3-4 mingga eta oladi. Bola ko'rgan, eshitgan narsalari to'g'risida ko'p savol beradi, yangi so'z va tushunchalarni egallay boshlaydi. Buning uchun bolaga to'g'ri tarbiya berish, u bilan so'zlashish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, ertaklar gapirib berish, kitoblar o'qib eshittirish lozim. Bola nutq qobiliyatiga ega bo'lsa, o'z fikr va maqsadini boshqalarga mukammal va aniq etkazib bera oladi.

Shuning bilan birga muloqot jarayonida to'g'ri va odobli muomalani, ya'ni suhbat vaqtida juda ham baland ovoz bilan shoshib gapirmaslik, so'zlarni aniq talaffuz qilish, bir gapni takrorlamaslik, boshqaning gapini qaytaravermaslik, bo'lmaslik kabilarga o'rgatib borishimiz zarur. Shuningdek, bolaning yoshiga qarab atrofdagi kishilar bilan muomala madaniyatiga o'rgatib borish muhim hisoblanadi.

Pedagogika fanlari doktori, professor M. Inomova oilaning quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko'rsatgan: birinchidan, oila o'ziga xos va takrorlanmas ta'sirga ega; ikkinchidan, oila bola uchun o'ziga xos «ko'zgu» bo'lib, ota -onaning shaxsiy namunasi, ibrati bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi; uchinchidan, oila o'ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo'lib, unda ijobjiy va ba'zan salbiy his-tuyg'ular jamuljam bo'ladi; to'rtinchidan, oila sharoitida bolalarda o'zgalarga nisbatan hamhardlik tuyg'ulari ham tarbiyalanadi; beshinchidan, oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili sanaladi; oltinchidan, oila – er-xotinlik, ota-onalik vazifalarini aks ettiradi. Ota-onaning bir-biriga bo'lgan muhabbati bolaga ta'sir ko'rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillardan biriga aylanishi mumkin.

XULOSA

Shunday qilib, muloqot oila sharoitida ota-onasi va farzandlar o'rtasidagi eng muhim aloqa, o'zaro axborot almashish, hissiy kechinmalarni bayon qilish vositasi sanaladi. Oila a'zolarining barcha munosabatlari bevosa yoki bilvosita muloqot yordamida amalga oshiriladi. Psixologik nuqtai nazardan esa muloqot katta tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu sababli ota-onasi va farzandlar, umuman olganda, oilaning barcha a'zolari o'rtasida tashkil etiladigan muloqotning ijobjiy ahamiyat kasb etishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu borada asosiy mas'uliyat shubhasiz ota-onaning zimmasiga yuklatiladi. Ota-onalarning o'zlarini samarali muloqot qilish uslublarini o'zlashtirgan holda farzandlarga ham shaxslararo munosabatlar jarayonida ushbu vositadan o'rinni, maqsadli foydalanish ko'nikmalarini tarbiyalab borishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi – T.: 1999.
2. Karimova O. Oila huquqi asoslari. – T.: 2003.

3. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi. – Т.: 2006.
4. Munavvarov A.K. Oilaviy tarbiya samaradorligining pedagogik shartsharoitlari. Т.: Fan. 1989.
5. Munavvarov A. Q. Oila pedagogikasi – Т.: O'qituvchi, 1994
6. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – Т.: O'qituvchi, 1999.
7. Ganiyev, O. (2020). КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИ–ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА.
8. Ganiyev, O. (2020). IMPROVING TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF METAMETHODICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. – 52-58-betlar.
11. Oila pedagogikasi. – Toshkent: "Aloqashi", 2007. – 5-16-betlar.
12. Safarov O. Oila ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 14-39-betlar. 5. Quronov M. Oila tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
13. Jalolova, P. M., and Yo D. Odilov. "Methods of atomic physics classes organization based on e-learning technologies." SCIENCE AND WORLD (2013): 20.
14. Jalolova, P. "USE OF ICT TOOLS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING PHYSICS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS." Science and innovation 2.B5 (2023): 393-401.
15. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "PEDAGOGIKANING INSON VA UNING SHAXSINI SHAKLLANTIRADIGAN ORNI." Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'mni va rivojlanish omillari 8.1 (2024): 145-151.
16. Jalolova, Pokiza. "Theoretical-methodological aspects of quantum physics section in the credit module system." Solid State Technology 63.6 (2020): 152-158.
17. Хайдаров, Шавкат. "Роль этнопедагогики в узбекском народном традиции." Ta'liming zamonaviy transformatsiyasi 7.4 (2024): 286-291.
18. Sokhibov, Akmal. "Economic and Political Restraints for Reducing the Drug Economy in Afghanistan." Sicherheit und Frieden (S+ F)/Security and Peace (2014): 193-200.
19. Rustamovich, Sohibov Akram. "Using A Modular Approach in the Credit System of Education." Academicia Globe 2.6 (2021): 391-394.
20. Сохибов, Акрам Рустамович. "Формирование организаторских способностей молодёжи Республики Узбекистан." Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов 9 (2016): 71-73.
21. Shavkat, Khaydarov, and Khuzhaniyozov Bakhrom. "ON THE IMPORTANCE OF ETHNOPEDAGOGICAL TRADITIONS IN THE UZBEK PEOPLE." Web of Teachers: Inderscience Research 2.5 (2024): 210-214.